

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

“FUNDAMENTAL IQTISODIYOT” KAFEDRASI

Qo‘lyozma huquqida
UDK: 330.12:6.01

TOSHTEMIROV SHOHRUH TOSHPO‘LATOVICH

ISHLAB CHIQRARISH OMILLARI VA ULAR DOIRASINI
KENGAYTIRISHGA BO‘LGAN INNOVATSION YONDASHUV
JIHATLARI

70310101-“Iqtisodiy nazariya”
Mutaxassisligi bo‘yicha

Magistr

Akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:
Dots. Mamaraximov B.E.

Toshkent-2023

Magistrlik dissertasiya ishi “Fundamental iqtisodiyot” kafedrasida dastlabki himoyadan o‘tgan. 6 sonli bayonnoma «26» aprel 2023 y.

Ilmiy rahbar: Mamaraximov B.

[imzo]

imzo

_____ sana

Magistrant: Ilhomjonov U.

[imzo]

imzo

_____ sana

Dissertatsiya ishi Iqtisodiyot fakultetida 2023 yil “23” 05.

№ 7/06 raqami bilan ro‘yxatga olingan

“Ximoyaga tavsiya etiladi”

“Fundamental iqtisodiyot” kafedrası mudiri,

dots. B. Mamaraximov

[imzo]

“_____” may 2023-yil

Himoya 2023-yil “24” may soat 10:00 da

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bo‘lib o‘tdi

ANNOTASIYA

Ishlab chiqarish omillari va ular doirasini kengaytirishga bo'lgan innovatsion yondashuv jihatlari dolzarb mavzulardan biridir. Shu bois tadqiqot davomida mavzu doirasida atroflicha ish olib bordik. Jumladan, mavzuga oid boshqa tadqiqot ishlari, mahalliy va xorijiy olimlar qarashlari, ilmiy maqolalari hamda mavzuga oid mahalliy me'yoriy-xujjatlarni o'rganib chiqib, adabiyotlar sharhi tayyorladik. Magistratura dissertasiyasining amaliy ahamiyatini oshirish uchun, mamlakatimiz ishlab chiqarish kapitali va uning samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvning ahamiyati, bu orqali mamlakatdagi ishlab chiqarishni kengaytirish, ishlab chiqarishdagi kapitallarga innovatsiyalarni qo'llash orqali korxonalar va firmalar bozorga sifatli mahsulotlarni yetkazib berish orqali iste'molchilar ehtiyojlarini qondirish, yuqori daromad olish hamda mamlakatning iqtisodiy o'sishini ta'minlash tadqiq etildi va amaliy asoslangan hulosalar, taklif va tavsiyalar ishlab chiqdik.

Kalit so'zlar: *Ishlab chiqarish omillari, kapital, ishchi kuchi, samaradorlik, innovatsiya.*

Summary

Factors of production and the aspects of an innovative approach to expanding their scope are one of the topical topics. Therefore, during the research, we carried out extensive work within the scope of the topic. In particular, we prepared a literature review after studying other research works on the topic, views of local and foreign scientists, scientific articles, and local normative documents on the topic.

In order to increase the practical value of the master's degree, the importance of an innovative approach in increasing the production capital of our country and its efficiency, thereby expanding production in the country, applying innovations to capital in production, enterprises and firms by supplying quality products to the market, meeting the needs of consumers, obtaining high income and the country's economic growth has been researched and practical conclusions, suggestions and recommendations have been developed.

Key words: *Factors of production, capital, labor, efficiency, innovation.*

MUNDARIJA

Annotasiya	3
Mundarija	5
Keltirilgan jadvallar ro'yxati	7
Keltirilgan rasmlar ro'yxati	8
Keltirilgan qisqartmalar	9
I BOB. KIRISH	10
1.1. Dissertasiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi	11
1.2. Tadqiqot maqsadi va vazifalari	12
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari	12
1.4. Tadqiqot ob'yekti va predmeti	13
1.5. Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati	13
1.6. Dissertasiya tarkibining qisqacha tavsifi	13
II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI	15
2.1. Kirish	15
2.2. Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar sharhi	15
2.3. Mavzuga oid mahalliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi	17
2.4. Xulosa	18
III BOB. METODOLOGIYA	19
3.1. Tadqiqot dizayni	19
3.2. Ma'lumotlarni to'plash jarayoni	19
3.3. Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar	20

3.4	Tadqiqotni o‘tkazish uchun zarur sharoitlar	20
3.5	Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi	20
3.6	Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar	20
IV BOB. TAHLIL VA NATIJALAR		22
4.1.	Ishlab chiqarish omillari, tarkibi hamda ularga bo‘lgan turlicha nazariy yondashuvlar tahlili.....	22
4.2.	Ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarish omillardan foydalanishning samaradorligini oshirishda innovatsiyalarning ta’sirini baholash.....	47
4.3.	Tahlillardan olingan natijalar sharhi	56
V BOB. XULOSA		59
5.1.	Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha ifodasi	59
5.2.	Tadqiqotning asosiy taklif va tavsiyalari	60
5.3.	Tadqiqot cheklovlari va kelgusi tadqiqotlar uchun takliflar	61
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI		62

I BOB. KIRISH

Ishlab chiqarish omillari va ular doirasini kengaytirishga bo'lgan innovatsion yondashuv jihatlarini tahlil qiladigan bo'lsak, Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning barcha bosqichlarida inson hayotining asosini moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish tashkil etadi. Chunki, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlari bo'lmasa, ayirboshlaydigan, taqsimlaydigan va iste'mol qiladigan ne'matlarning o'zi bo'lmaydi. Inson iste'molsiz yasholmaganidek, ishlab chiqarmasdan ham turolmaydi. Biroq, bugungi kunda iqtisodiyot nazariyasi bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar e'tibordan chetda qolmoqda.

Bugungi kunda iqtisodiyotda ishlab chiqarish omillari doidasidagi muammolar va ularni oldini olish bo'yicha innovatsion jarayonlar ortib bormoqda. Shuningdek bozorlarni egallashda, iste'molchilarning ehtiyojlarini to'laroq qondirishda ishlab chiqarishda innovatsiyalarni keng tadbiiq etish dolzarb masala xisoblanadi.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oya, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Innovatsiya bu – kelajak degani. Buz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak".¹

Aholi bandligi va daromadlarini oshirishga har tomonlama ko'maklashish, ishsizlik, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlar, mehnat bozoriga ilk bor kirib kelayotgan bitiruvchilar bandligini ta'minlashda innovatsiyalar yordamida ishlab chiqarish tashkilotlari va xizmat ko'rsatishning turlarini oshirish orqali ko'plab yangi ish o'rinlari yaratish, tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatini yanada rag'batlantirish hamda tarmoq tashkilotlari va klasterlar, venchur tashkilotlari va tegishli moliya bozorlarining turli vositalari ko'magida kapital yaratishni, ya'ni arzonlashtirilgan va

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.- T.: "O'zbekiston" NMIU, 2018. –B. 23.